

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA HUDUDLARDA TADBIRKORLIK SOHASINI RIVOJLANISH AMALIYOTI

Olimova Nodira Xamrakulovna

i.f.n., prof., olimova_nh@mail.ru

Nematova Shaxlo Egamberdiyevna

o'qituvchi, shaxlonematova1974@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. *Mazkur ishda mamlakatimiz hududlaridagi ishbilarmonlik muhitining tobora kengayishi tadbirkorlik sub'yektlarining rag'bat asosidagi faoliyatini ta'minlashga olib kelayotgani, deyarli barcha tarmoqlardagi kichik biznes sub'yektlari yildan-yilga miqdor jihatidan ortib borayotgani xususida fikr yuritiladi. Ishda davlatimiz shahar va tumanlaridagi tadbirkorlik sohasining rivojlanishi bayon etilgan, amaldagi holati va uni rivojlantirish shart-sharoitlari tahlili amalga oshirilgan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiyot, barqarorlik, hududlar, tadbirkorlik, salohiyat, bozor*

Annotation. *This paper examines the issues of the growing expansion of the business climate in the regions of the country, leading to the provision of stimulating activities of business entities, while the number of small businesses in almost all sectors is increasing every year. The paper describes the development of entrepreneurship in cities and districts of the state, analyzes the current state and conditions of its development.*

Keywords: *economy, stability, regions, entrepreneurship, potential, market*

Аннотация. *В данной работе рассматриваются вопросы растущего расширения делового климата в регионах страны, приводящие к обеспечению стимулирующей деятельности субъектов предпринимательства, при этом количество субъектов малого бизнеса практически во всех отраслях с каждым годом увеличивается. В работе изложено развитие сферы предпринимательства в городах и районах государства, проведен анализ текущего состояния и условий его развития.*

Ключевые слова: *экономика, стабильность, регионы, предпринимательство, потенциал, рынок*

Milliy iqtisodiyotimizda xususiy tadbirkorlik ulushining ortib borayotgani ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli tovarlar bilan to'ldirish, zamon talablarini inobatga olgan holda xizmatlar ko'rsatish sohasini kengaytirish, eksport tarkibida jahon bozorlarida xaridorgir, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ko'paytirish, avvalo yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadi hamda farovonligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'ldi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik sub'yektlari erkin faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan, byurokratik to'siqlarni olib tashlash, yuqori likvidli mahsulotlar, xom ashyo va materiallarni ochiq birja savdolarida sotishni tashkil etish, yangi tuzilayotgan tadbirkorlik sub'yektlarini ro'yxatga olishni osonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni

sertifikatlashga doir qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga keng imkoniyatlar ochib berdi. Mahalliy va xorijiy bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xo'jalik yurituvshi sub'yektlar o'rtasida o'zaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning eng muhim shartlari hisoblanadi. Ichki bozordagi ehtiyojlar hajmlarining tahlili davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini amalga oshirish orqali biznes va tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan talab yuqori bo'lgan tovarlarning alohida turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish uchun foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Kichik biznes sektorining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ko'p jihatdan tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilab berdi. Harakatlar strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish borasidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilgan [1].

Mavjud barcha xo'jalik sub'yektlarining 90 foizidan ortig'ini kichik biznes korxonalarini tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 53,9% yaqini, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 27,5% va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 97,0% aynan shu soha - xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri kelmoqda. Taqqoslaydigan bo'lsak, umumiy bandlikda kichik biznesning ulushi AQShda 54%, Buyuk Britaniyada 56%, Germaniyada 69,5%, Italiyada esa 71 %ni tashkil qiladi.

"Hududiy iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari mamlakatimiz amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Bu borada iqtisodchi olimlarimizdan A.Burxanov, K.Raxmatovlarning Mintaqaviy iqtisodiyot nomli o'quv qo'llanmalari [2] da shunday deyilgan: "Hududlar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:


- hududda bandlikning bir birligiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi;
- mehnatning fond qaytimi va ta'minlanganligi;
- asosiy fondlar rentabelligi (yalpi daromad va YaHM bo'yicha);
- solishtirma investitsiyalar (tovar ishlab chiqarish va xizmatlar birligiga);
- o'rtacha ish haqi; hudud aholi sonidagi bandlik hissasi;
- YaHMagi soliq va soliqsiz ustamalar hissasi (soliq yuki);
- mahalliy byudjet daromadlarining respublika byudjetidan ajratmalari hissasi;
- bir yashovchi hisobida mahalliy byudjetning o'z daromadlari va boshqalar".

Tadbirkorlik g'oyat murakkab faoliyat bo'lganidan, maxsus iste'dod, tayyorgarlik va tajribani talab qiladi. Qulay tadbirkorlik muhitining yaratilishi, investitsiyalarning keng jalb qilinishi natijasida nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o'zgarishlarining yuz berishi ta'minlandi. Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Yurtimizda sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlarga hududlarning roli sezilarli darajada oshdi. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Kichik biznes mamlakatimiz iqtisodiyotining o'tgan

yillardagi rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qildi. Uning asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlari quyidagi tendentsiyalar bilan ifodalanadi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub’yektlari sonining (har 1000 aholiga nisbatan) eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida 29,2 birlik, Navoiy viloyatida 21,0 birlik, Sirdaryo viloyatida 17,3 birlik, Jizzax viloyatida 16,4 birlik va Buxoro viloyatida 16,3 birlikka yetdi. 2023 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Toshkent shahri - 18,9 %, Farg‘ona viloyati - 9,3 %, Samarqand viloyati - 8,8 %, Toshkent viloyati - 8,1 %, Xorazm viloyati - 7,4 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasi - 7,3 %, Qashqadaryo viloyati - 6,9 % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning qabul qilinishi natijasida inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. 2023 yilda kichik tadbirkorlik sub’yektlarining YaHMdagi hududlar bo‘yicha eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida - 75,9 %, Jizzax viloyatida - 73,7 %, Namangan viloyatida - 72,8 %, Samarqand viloyatida - 72,8 %, Buxoro viloyatida - 71,7 % va Xorazm viloyatida - 69,7 % ni tashkil etdi (3.1-rasm).



1-rasm. YaHMda kichik tadbirkorlik sub’yektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar [13], % da

Shu bilan birga Farg‘ona viloyatida - 69,5 %, Qashqadaryo viloyatida - 68,4 %, Andijon viloyatida - 66,0 %, Sirdaryo viloyatida - 63,6 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasi - 58,7 %, Toshkent shahrida - 49,8 % va Toshkent viloyati - 48,7 % ni tashkil qildi. Bu bo‘yicha Navoiy viloyati eng kichik ko‘rsatkichga ega bo‘lib 26,0 % ni tashkil qildi. Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Surxondaryo viloyatida - 72,4 %, Farg‘ona viloyatida - 68,4 %, Xorazm viloyatida - 64,2 %, Sirdaryo viloyatida - 63,4 %, Buxoro viloyatida - 45,9 % va Jizzax viloyatida - 43,5 % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Navoiy viloyatida - 9,0 % ni tashkil etdi. Mamlakatimizda 2023 yilda kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 7,1 mlrd. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 29,0 % ini tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Surxondaryo viloyatida - 72,4 %, Farg‘ona viloyatida - 68,4 %, Xorazm viloyatida - 64,2 %, Sirdaryo viloyatida - 63,4 %, Buxoro viloyatida - 45,9 % va Jizzax viloyatida - 43,5 % ni tashkil qildi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining qit‘alar kesimida eksport faoliyati [13], (mln. AQSh doll.)


| Ko‘rsatkichlar | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|-------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Jami | 12,507.6 | 12,094.6 | 12,553.7 | 13,990.7 | 17,458.7 | 15,102.3 | 16,662.8 | 19,293.7 |
| tovarlar | 9,446.3 | 8,974.0 | 10,079.2 | 10,920.7 | 14,023.8 | 13,097.3 | 14,081.1 | 15,275.9 |
| xizmatlar | 3,061.3 | 3,120.6 | 2,474.5 | 3,070.0 | 3,434.8 | 2,005.0 | 2,581.7 | 4,017.8 |
| Yevropa | 4,343.5 | 5,183.5 | 6,120.7 | 5,927.7 | 8,429.4 | 8,045.4 | 7,566.6 | 8,570.9 |
| tovarlar | 3,586.6 | 4,465.1 | 5,385.0 | 5,227.0 | 7,719.4 | 7,554.7 | 6,919.3 | 7,742.9 |
| xizmatlar | 757.0 | 718.4 | 735.7 | 700.6 | 710.0 | 490.7 | 647.2 | 827.9 |
| Osiyo | 6,952.8 | 5,570.9 | 5,860.0 | 7,062.5 | 7,764.3 | 6,624.4 | 8,383.0 | 8,755.3 |
| tovarlar | 5,810.2 | 4,387.9 | 4,627.4 | 5,674.1 | 6,275.1 | 5,364.7 | 6,888.6 | 7,264.8 |
| xizmatlar | 1,142.6 | 1,183.0 | 1,232.6 | 1,388.4 | 1,489.2 | 1,259.7 | 1,494.3 | 1,490.5 |
| Shimoliy Amerika | 39.4 | 142.7 | 87.8 | 44.0 | 45.1 | 174.0 | 264.5 | 351.0 |
| tovarlar | 9.6 | 114.5 | 59.1 | 5.2 | 8.0 | 151.8 | 220.9 | 219.6 |
| xizmatlar | 29.8 | 28.1 | 28.6 | 38.8 | 37.2 | 22.2 | 43.6 | 131.4 |
| Janubiy Amerika | 8.8 | 2.9 | 1.0 | 5.1 | 4.3 | 4.2 | 8.9 | 20.5 |
| tovarlar | 8.4 | 2.7 | 0.7 | 4.6 | 3.3 | 4.1 | 8.8 | 9.9 |
| xizmatlar | 0.4 | 0.2 | 0.3 | 0.5 | 1.0 | 0.1 | 0.1 | 10.5 |
| Afrika | 31.3 | 4.3 | 7.3 | 10.3 | 19.4 | 22.5 | 45.9 | 41.7 |
| tovarlar | 30.7 | 3.7 | 6.9 | 9.7 | 18.0 | 22.0 | 43.3 | 38.5 |
| xizmatlar | 0.6 | 0.5 | 0.5 | 0.5 | 1.4 | 0.5 | 2.6 | 3.2 |
| Avstraliya va Okeaniya | 2.2 | 1.1 | 1.0 | 1.4 | 2.5 | 0.1 | 0.2 | 1.0 |
| tovarlar | 0.9 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.2 | 0.0 | 0.1 | 0.1 |
| xizmatlar | 1.3 | 1.0 | 1.0 | 1.4 | 2.3 | 0.1 | 0.1 | 0.9 |

Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub‘yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida - 88,2 %, Farg‘ona viloyatida - 81,5 %, Qashqadaryo viloyatida - 73,8 %, Sirdaryo viloyatida - 73,7 %, Namangan viloyatida - 70,2 %, Jizzax viloyatida - 59,5 % hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 57,4 % ni tashkil etdi.




2-rasm. Kichik tadbirkorlik sub‘yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmi va ulushi [13]

Eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik biznes sub'yektlarining davlat tomonidan qo'llab - quvvatlanishi eksport mahsulotlari va xizmatlari hajmining o'sishida kichik biznes hissasining ortib borishiga zamin yaratib berdi. Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan yiliga 20 mln. dollardan ortiq eksport qiluvshi korxonalariga 5 mln. dollargacha imtiyozli kreditlar ajratildi.



3-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar va xizmatlar eksporti hajmi va ulushi [13]

Kichik biznes sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 19 349,5 million AQSh dollarini yoki jami importning 50,7 % ini tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida - 9,0 % ni tashkil etdi. 2023 yilda kichik biznes sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 19 349,5 million AQSh dollarini yoki jami importning 50,7 % ini tashkil etdi.



4-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar va xizmatlar importi hajmi va ulushi [13]

Yuqori sifat va nazorat tizimiga ega Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda sertifikat berilgan asbob-uskuna va xom ashyolarga milliy sertifikat olish

amaliyoti bekor qilindi. Bir qator mamlakatlar to'g'rida-to'g'ri kichik korxonalariga yo'naltirilgan ish vaqtini qisqartirish, vaqtincha ishdan bo'shatish va kasallik ta'tiliga chiqarish kabi chora-tadbirlar joriy etmoqda. Shunga o'xshab, hukumatlar vaqtincha ishdan bo'shatilgan ishchilarga to'g'rida-to'g'ri yordam yoki kompaniyalarga ish o'rinlarini saqlab qolishlari uchun ko'mak qo'rsatmoqdalar. Ko'p holatlarda, mamlakatlar o'z-o'zini ish bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etishmoqda.

Ta'kidlash kerakki, ba'zi davlatlar, tijorat banklariga kichik va o'rta biznesga kredit berishni kengaytirish uchun kredit kafolatlarini taqdim etishni kengaytirmoqda va buning yo'l-yo'rig'ini soddalashtirmoqda. Ba'zi davlatlar kichik biznes korxonalariga yo'naltirilgan davlat siyosatini doimiy tarzda yaxshilab borish maqsadida tadbiriq etilgan chora-tadbirlar samarasini monitoring qilish tizimlarini joriy etishgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining qit'alar kesimida tashqi savdo aylanmasi [13], mln. AQSh doll.

| Ko'rsatkichlar | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|-------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Jami | 24,924.3 | 24,232.2 | 26,566.1 | 33,430.0 | 41,751.0 | 36,256.1 | 42,170.5 | 50,061.5 |
| tovarlar | 20,908.9 | 20,302.4 | 22,114.4 | 28,233.0 | 35,890.3 | 33,029.6 | 37,821.4 | 43,496.2 |
| xizmatlar | 4,015.4 | 3,929.8 | 4,451.7 | 5,197.1 | 5,860.7 | 3,226.4 | 4,349.1 | 6,565.3 |
| Yevropa | 9,491.2 | 10,222.8 | 11,474.5 | 13,004.8 | 16,706.4 | 16,425.5 | 17,425.0 | 19,498.9 |
| tovarlar | 8,470.3 | 9,233.7 | 10,455.7 | 12,009.5 | 15,649.8 | 15,606.1 | 16,413.9 | 18,140.1 |
| xizmatlar | 1,020.9 | 989.2 | 1,018.7 | 995.3 | 1,056.7 | 819.4 | 1,011.1 | 1,358.8 |
| Osiyo | 13,248.9 | 11,439.0 | 12,619.7 | 17,468.1 | 21,257.0 | 18,522.7 | 22,273.6 | 26,105.5 |
| tovarlar | 11,809.8 | 10,066.4 | 11,053.6 | 15,781.8 | 19,384.4 | 16,843.8 | 20,351.0 | 24,017.8 |
| xizmatlar | 1,439.0 | 1,372.6 | 1,566.1 | 1,686.3 | 1,872.7 | 1,678.9 | 1,922.6 | 2,087.7 |
| Shimoliy Amerika | 290.2 | 645.9 | 288.2 | 435.7 | 735.2 | 456.8 | 666.8 | 738.2 |
| tovarlar | 214.4 | 595.8 | 224.7 | 331.6 | 626.6 | 394.1 | 533.7 | 505.3 |
| xizmatlar | 75.9 | 50.0 | 63.5 | 104.1 | 108.6 | 62.7 | 133.1 | 232.9 |
| Janubiy Amerika | 346.1 | 374.1 | 350.9 | 83.9 | 166.2 | 133.9 | 449.0 | 770.8 |
| tovarlar | 345.2 | 373.9 | 350.6 | 83.3 | 165.2 | 133.7 | 448.6 | 759.2 |
| xizmatlar | 0.9 | 0.2 | 0.3 | 0.5 | 1.0 | 0.2 | 0.3 | 11.6 |
| Afrika | 79.3 | 34.6 | 28.4 | 26.2 | 62.1 | 38.3 | 67.4 | 70.8 |
| tovarlar | 64.8 | 30.5 | 27.3 | 25.1 | 59.7 | 37.5 | 63.9 | 65.9 |
| xizmatlar | 14.5 | 4.1 | 1.1 | 1.1 | 2.4 | 0.7 | 3.5 | 4.9 |
| Avstraliya va Okeaniya | 5.7 | 3.7 | 4.4 | 3.2 | 7.0 | 14.9 | 10.6 | 9.0 |
| tovarlar | 4.4 | 2.1 | 2.5 | 1.6 | 4.7 | 14.4 | 10.3 | 8.0 |
| xizmatlar | 1.3 | 1.6 | 1.9 | 1.6 | 2.3 | 0.6 | 0.3 | 1.1 |

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda, O'zbekiston sharoitida turli xil salbiy oqibatlarni kichik biznesga ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar tarkibiga quyidagilarni kiritish o'rinli deb hisoblaymiz:

- iqtisodiyotda kichik biznes sub'yektlari mahsulotlariga talabni yetarli darajada ushlab qolinishini ta'minlash maqsadida kichik biznes ishchilarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- transport va nooziq-ovqat tovarlar savdosi (ayniqsa, kompyuter va aloqa vositalari) sohalarini sanoat ishlab chiqarish va ta'mirlash sohalarini kabi dezinfektsiya qoidalariga amal qilgan holda faoliyatini qayta tiklashga imkon yaratib berish choralarini ko'rish;

- banklar tomonidan faoliyat yuritayotgan korxonalariga foizsiz yoki davlat kafolati ostida kreditlar ajratish masalasini ko‘rib chiqish (yangi tashkil etilayotgan korxonalar bundan mustasno);

- eksport qiluvchi kichik firmalar faoliyatini har tomonlama qo‘llab-qo‘vvatlash;

- masofadan turib ishlash mumkin bo‘lgan faoliyat turlarini (biznes konsalting, bank va moliya, sug‘urta, savdo) texnik va texnologik jihatdan qo‘llab-qo‘vvatlash va raqamli texnologiyalar, internet qamrovini kengaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish.

Ta’kidlash joizki, kichik biznes vakillari katta korxonalariga qaraganda manevr qilish uchun yetarlicha katta mablag‘larga ega emasliklari, sug‘urta va moliyalash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari nisbatan cheklanganligi tufayli "ijtimoiy izolyatsiyalanish" holatlariga nisbatan ko‘proq ta’sirchan bo‘ladi. Ko‘pchilik mamlakatlarda korxonalar soni, qo‘shimcha qiymatning yaratilishi va bandlikning asosiy ulushi kichik va o‘rta biznes hissasiga to‘g‘ri kelishi sir emas. Biroq, chegaralarning yopilishi oqibatida ta’sir ko‘rgan sayyohlik va transport sohalari, shuningdek, vaqt omili muhim sanalغان moda sanoati va oziq-ovqat sohasida kichik biznesning ulushi juda yuqori. Shu bilan birga, kichik va o‘rta korxonalar tashqi shoklar keltirib chiqaradigan ortiqcha xarajatlarga kamroq bardoshli va moslashuvchan bo‘ladi.

Ma’lumki, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish - mamlakatimizda iqtisodiy o‘rishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlik muammosini hal etish, aholining real daromadlari va farovonligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik quyidagi vazifalarni amalga oshira olishi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida. 17.01.2019 yil, PF-5635-son, <https://lex.uz/docs/4168749>.

2. Бурханов А., Рахматов К. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. Тошкент-2019, 614б.

3. Nematova, S. (2022). Structural changes in the innovation-investment entrepreneurship of the economy of the region. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 184-187.

4. Egamgamberdievna, N. S. (2023). Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida raqobat muhitini taminlashda kichik biznes subektlari faoliyatini rivojlantirishning muhim omillari. Journal of Innovations In Scientific and Educational Research, 6(3), 294-300.

5. Нематова, Ш. Э. (2023). Приоритетные направления развития деятельности субъектов малого предпринимательства в условиях либерализации экономики. Образование наука и инновационные идеи в мире, 19(7), 46-53.

6. Нематова, Ш. Э. (2023). Деятельность субъектов малого предпринимательства в экономике Узбекистана и вопросы их развития. *Journal of new century innovations*, 26(4), 172-178.
7. Олимова, Н. Х., & Юлдашев, Д. Т. (2016). The role of small business and private entrepreneurship in the economic activities. *Молодой ученый*, (9), 682-683.
8. Olimova, N. X., & Djuraboyeva, D. M. (2023). Korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirishning yangi manbalari va zahiralaridan foydalanish imkoniyatlari va ularni boshqarish. *Ijodkor O'qituvchi*, 3(32), 40-47.
9. Олимова, Н., & Аликулов, Б. (2023). Оилавий тадбиркорлик салоҳиятидан фойдаланиш зарурияти ва йўллари. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(5 Part 3), 154-158.
10. Олимова, Н. Х., & Аминжонова, В. М. (2023). Тадбиркорлик фаолияти ривожлантиришнинг назарий-услубий асослари. *Scientific progress*, 4(4), 335-341.
11. Olimova, N. (2024). Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2024-yil, yanvar. № 1-son, 322-328b.
12. Олимова, Н. Х., & ўғли Абдухалилов, Н. Х. (2023). Бизнесни юритишда кооперацион алоқаларини моделлаштиришни ривожлантиришнинг истиқболли йўналишлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(5), 181-192.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy ko'rsatkichlari. 2023 yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar, Toshkent-2024.